



YURAK QON TOMIR TIZIM KASALLIKLARINI ZAMONAVIY DAVOLASH USULLARI

Turdialiyev Sardorbek Shuxrat o'g'li

Toshkent davlat tibbiyot universiteti
turdialiyevsardorbek216@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20183305>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 09-may 2026 yil
Ma'qullandi: 11-may 2026 yil
Nashr qilindi: 13-may 2026 yil

KEY WORDS

Yurak qon tomir, shikastlanish, gepertoniya, miokard infarkti, insult, yurak ishemiyasi, angioplastika, medikamentoz, minimal invaziv jarrohlik, raqamli tibbiyot.

ABSTRACT

Ushbu maqolada yurak qon tomir kasalliklarini davolashning zamonaviy usullar haqida yoritib berilgan. Bugungi kunda hayotimizda globalashib borayotgan qon tomir sestimasi kasalliklari insonlar hayotiga sezilarli darajada xavf solmoqda. Yurak qon tomir kasalligiga chalingan bemorlar orasida yurak ishemik kasaligi, gipertoniya, insult, miokard infarkti kabi xastaliklar bilan og'riqan bemorlar ko'pchilikni tashkil etadi. Bu kasalliklar bemorlarning sog'lig'iga ta'sir qilib qolmay, balki ruhiy psixik holatiga ham kuchli zararlovchi tasir etadi. Zamonaviy texnologiyalar va tadqiqotlar rivojlanishi natijasida kasalliklarini erta aniqlash va sifatli yordam ko'rsatish, asoratlarni kamaytirish usullari ishlab chiqilgan va amaliyotlarda o'z samarasini bermoqda. Maqolada sog'lom turmush tarziga, jismoniy faollikka, to'g'ri ovqatlanish va zararli odatlarni cheklash kabi hayotiy muhim bo'lgan jarayonlarning profilaktikasiga etibor qaratilgan. Shuningdek ushbu maqolada yurak qon tomir sestima kasalliklarini davolashda qo'llaniladigan zamonaviy usullar, xususan angioplastika, minimal invaziv jarrohlik operatsiyalari, stent qo'yish, raqamli tibbiyot amaliyoti haqida so'z yuritilgan. Inson organlar tizimida uchraydigan barcha kasalliklar haqida malumot almashinuvida stressga alohida etibor berish zarur. Chunki stress barcha kasalliklarni tez fursatda rivojlanishida asosiy stimullovchi omil hisoblanadi. Bugungi kunda axborot almashinuvi juda tez hisoblanadi. Bu axborotlar insonlarni psixik xolatiga turli xil ta'sir ko'rsatib stressni kelib chiqishini kuchaytiradi. Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda barcha insonlar avvalo o'z sog'liqlariga o'zlari etibor berishlari zarur. Zero inson tanasidagi barcha

organlar oxirgi holatgacha ham yashashga harakat qiladi. Insonlar bu kurashni shunchaki e'tiborsizlik qilib buzishadi. Bu maqola orqali tibbiyot xodimlari va kasalik xavfi yuqori bo'lgan shaxslarga nazariy va amaliy ko'nikmalar berildi.

Bugungi kunda yurak qon tomir kasalliklari dunyo bo'yicha eng ko'p uchraydigan va o'lim ko'rsatkichi yuqori bo'lgan kasalliklar qatorida turadi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda bu tizim kasalliklari o'lim ko'rsatkichi bo'yicha dunyoda 2 o'rinda turadi. Bu tizim kasalliklari nafaqat inson hayotiga balki iqtisodiyot va jamiyarmtga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. So'ngi ma'lumotlar va statistik tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, yani dunyo aholisining o'lim ko'rsatkichini 32% yurak qon tomir tizim kasalliklariga to'g'ri kelmoqda. Bu o'lim ko'rsatkichini 85% yurak xuruji va insult bilan vafot etgan bemorlar tashkil qiladi. Yurak qon tomir tizim kasalliklari bilan o'lgan bemorlarning ko'pchiligi erkaklar hisoblanadi. Ayollarga nisbatan erkaklarda bu sestima kasalliklari ko'p qayt etilgan. Eng achinarlisi bu tizim kasalliklari ko'proq o'rta yoshdagi insonlarda qayt etilmoqda. Xususan har uchragan 5 ta bemorning 1 tasi 40 va undan kichik yoshda bo'lgan shaxs tashkil qilmoqda. Bu esa jamiyat iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada yurak qon tomir tizim kasalliklarini samarali davolash usullari va profilaktik chora tadbirlarni tahlil qilib o'rganildi. Zamonaviy davolash texnologiyalarinining ahamiyati va davlat iqtisodiyotida tutgan o'rni tahlil qilindi. Men bu maqolam orqali yurak qon tomir kasalligi bilan og'rigan bemorlarni tez va samarali davolash hamda bu kasalliklarni oldini olishga qaratilgan chora tadbirlar haqida so'z yuritdim.

Mavzu dolzarbligi: Yuak qon tomir tizm kasalliklari bugungi kunda insonlar turmush tarziga juda katta xavf solmoqda. Shuning uchun ham bu tizim kasalliklarini davolashda bizdan yangicha yondashuv va ilg'or texnologiyalar talab qiladi. Bugungi kunda bu kasalliklarni turli xil davolash usullari ishlab chiqilgan bo'lib, ularni har biri o'ziga yo'nalishlariga ega.

Bularga misol tariqasida angioplastika, medikamentoz, minimal invaziv jarrohlik va boshqa shunga o'xshash ko'plab amaliyotlarni misol qilishimiz mumkin. Angioplastika bu minimal invaziv davolash usuli bo'lib, kesmalarsiz qon tomirlarda qonni erkin harakatini taminlaydigan amaliyot turi hisoblanadi. Bu amaliyot koronar qon tomir kasalligi bilan kasallangan yoki o'tkir miokard infarktni boshdan o'kazgan shaxslarda qo'llaniladi. Bu amaliyotni qo'llashda ma'lum bir turlari bo'lib ularga periferik angioplastika - bu ko'pincha periferiyada joylashgan a'zo qon tomirlarida masalan oyoqlarda amalga oshiriladigan prodsedura hisoblanadi. Miyada vujudga kelgan qon tomir kasalliklarida esa karotid angioplastika yoki koronar angioplastika usullaridan foydalanamiz. Operatsiya jarayonida dastlab bemorda siqilib qolgan arteriyasiga katetr qo'yiladi, katetr uchida shishirilmagan baloni bo'lib katetr qon tomirni tiqilib qolgan joyiga yetib borgandan so'ng, arteriyani kengaytirish va uning devirida joylashgan qon oqimiga qarshilik ko'rsatuvchi blyashkani bosib qon oqimini yaxshilash maqsadida balon shishiriladi. Bu amaliyot orqali juda ko'p yurak qon tomir kasalligi bilan og'rigan bemorlarni hayot faoliyatini yashilash mumkin, chunki bu tizim kasalliklarini asosiy qismi tomirlar kasalliklari tashkil qiladi. Bu amaliyotning asosiy maqsadi tiqilib qolgan yoki tomir ichida qon oqimiga xalaqit beruvchi yod jismlarni davolash va ularning alomatlarini kamaytirishga qaratilgandir.

Bu tizim kasalliklarini davolashda ya'na medikamintoz terapiya ham o'zining muhim ahamiyatiga ega. Bu davolash usul dori vositalari yordamida davolash usuli hisoblanib bu usul

orqali yurak xuruji, insult xavfi yuqori bo'lgan bemorlarni davolash samarasini yanada oshirib beradi. Yangi avlod dori vositalari, misol qilib qon ivishga qarshi dorilar yoki qon bosimni tushuruvchi, qon oqimini yaxshilovchi dori vositalarni misol qilsak bo'ladi. Bu tizim kasalliklarini erta aniqlash va to'g'ri davolash amaliyotini bajarish orqali bu sestima kasalliklarini 30% gacha xavfini kamaytirish mumkin ekan.

Minimal invaziv jarrohlik bu tibbiyotning sezilarli darajada erishganyutug'i bo'lib bu usul orqali bemor kamroq o'riq sezishi, kichik chandiq, kamroq qon yo'qotish, kasalxonada qolish mudatni qisqartirish va bemor axvolini tezroq yaxshilanishi hamda moddiy jihatdan ham yengilik berishi kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Bu jarrohlik orqali ichki organlarni yanada yaqinroq ko'rish va ularni davolashda foydalaniladi. Bu usul bugungi kunda tibbiyotning barcha sohalariga kirib borgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Zamonaviy tibbiyotda bu amaliyotlar eng ilg'or jarrohlik usullaridan bo'lib qolmoqda. Ochiq operatsiyalardan asosiy farqi bu amaliyotda to'qima shikastlanishi kam bo'ladi.

Biz raqamli texnologiyalar asrida yashar ekanmiz bugungi kunda hayotimizning har jabhasida bu texnologiyalar ajralmas qisimga aylanib borayotkanini ko'rishimiz mumkin. Shu jumladan bu texnologiyalar ham zamonaviy tibbiyotning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Raqamli tibbiyot orqali biz diagnostikada aniqlikni oshirish, davolash jarayonini optimallashtirish va rejalashtirish jarayonini kuchaytiradi.

Yurak qon tomir tizim kasalliklarini oldini olish va ularni davolashda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish kasalliklarni kamaytirishda o'zining sezilarli tasirini ko'rsatadi. Sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollik bilan muntazam shug'ullanish, tog'ri kun tartib qoidalariga roiya qilish orqali bu kasalliklarni 30-40%ga kamaytirishi mumkin. Muntazam sport bilan shug'ullanish qon aylanishini va qon bosimini normallashtirib turishi ham fanda isbotlangan.

Ushbu malumotlardan kelib chiqqan holda har qanday kasalliklarni davolashda zamonaviy tibbiyot bilan profilaktik chora tadbirlar juda muhim hisoblanib, ulani birgalikda qo'llash orqali kasalliklarni oldini olish va asoratlarini sezilarli darajada kamaytirishini amaliyotda ko'rishimiz mumkin. Bugungi kunda zamonaviy tibbiyot orqali kasalliklarni oldindan aniqlash va ularni boshlang'ich davrida erta davolash hamda asoratlarni oldini olish mumkin.

Xulosa: Yurak qon tomir tizim kasalliklari yildan yilga oshib borayotgani va o'lim ko'rsatkichi bo'yicha ham yetakchi raqamlarda turgani bu tizim kasalliklariga alohida etibor berish kerakligini taqazo etadi. Bu kasalliklarni bugungi kunda zamonaviy davolash usullarida va zamonaviy asboblardan yordamida davolash amaliyoti boshlangan. Bu kasalliklarni davolash bilangina cheklanib qolmaslik kerak, chunki bir kasallikni batamom ildizi bilan yo'q qilish uchun uni faqat simptomatik davolash bu xato hisoblanadi. Asosiy e'tiborni sabab etiologiyasini aniqlashga va uni bartaraf etishga qaratish lozim. Chunki biz qachonki kasallikni yuzaga chiqishga turtki bo'luvchi omilni aniqlasak, shundagina u kasallikka qarshi kurashda aniq bilim va ko'nikmaga ega bo'lamiz. Kasallikni yuzaga chiqishga sabab bo'luvchi omillar haqida so'z yuritar ekanmiz biz asosiy e'tiborimizni sog'lom hayot tarziga qaratishimiz lozim. Masalan turli xil zararli odatlar, noto'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollikni pastligi va ortiqcha vazn birinchi navbatda o'z ta'sirini yurak qon tomirlarni shikastlovchi tasir ko'rsatadi. Biz shu ma'lumotlardan kelib chiqqan holda kasalliklarni oldini olish va asoratlarni kamaytirish maqsadida aholi orasida sog'lom turmush tarzini joriy etish haqida profilaktik ishlarni olib borishni maqsad qilib qo'ydik.

Fodalanilgan adabiyotlar:

1. Robert O. Bonow, et al. – Braunwald's Heart Disease: A Textbook of Cardiovascular Medicine (12th Edition), Elsevier, 2022.
2. M. Kosiborod, et al. – Semaglutide in Patients with Heart Failure with Preserved Ejection Fraction and Obesity (STEP-HFpEF Trial), The New England Journal of Medicine, 2023.
3. ESC Board Members – 2023 ESC Guidelines for the management of cardiovascular disease in patients with diabetes, European Heart Journal, 2023.
4. J. Butler, et al. – Finerenone in Heart Failure with Mildly Reduced or Preserved Ejection Fraction (FINEARTS-HF), The Lancet, 2024.
5. S.S. Virani, et al. – 2023 AHA/ACC Guideline for the Management of Patients With Chronic Coronary Disease, Circulation, 2023.
6. Bryan Williams, et al. – 2024 ESC Guidelines for the management of elevated blood pressure and hypertension, Oxford University Press, 2024.
- Paul M. Ridker, et al. – Inflammation: A Therapeutic Target in Cardiovascular Disease, Nature Reviews Cardiology, 2024.
7. K. Thygesen, et al. – Fourth Universal Definition of Myocardial Infarction, Journal of the American College of Cardiology, 2023.
8. Andrew P. Landstrom, et al. – Genetic Testing for Inherited Cardiovascular Diseases, Mayo Clinic Proceedings, 2023.

INNOVATIVE
ACADEMY